

“Hududgazta’minot” AJ Boshqaruvi raisining xodimlar va jamoatchilik uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid MUROJAATI

So‘nggi yillarda aholining turmush darajasini yana-da oshirish maqsadida, Davlatimiz rahbari boshchiliklarida mamlakatimizda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar doirasida, gaz ta‘minoti tizimini **raqamlashtirish** va **modernizatsiya** qilish orqali inson omili aralashuvini qisqartirish hamda tizimni “Korrupsiyadan holi hudud”ga aylantirish **Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan.**

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosatining harakatlantiruvchi kuchi sifatida davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarimiz tomonidan ushbu illatga qarshi olib borilayotgan kurashni yagona tizimli harakatga aylantirish hamda korrupsiyaga qarshi murosasizlik va toqatsizlik maksimal nuqtaga chiqqan jamiyat barpo etish oldimizda turgan eng muhim vazifadir.

Buning uchun sodiqlik, halollik, vatanparvarlik va mas‘uliyatni faoliyatning asosiy tamoyiliga aylantirgan holda, Jamiyatning har bir xodimi jamoamiz oldiga qo‘yilgan vazifalarni vijdonan, xolis va yuqori saviyada amalga oshirishi lozim.

“Hududgazta’minot” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, huqubuzarliklarni oldini olish hamda tizim xodimlari ongida korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirish maqsadida komplayens nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari tashkil etildi.

Tizim faoliyatining raqamlashtirilganligi, inson omili aralashuvining qisqarishi hamda komplayens nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida tizimning aloqador tuzilmalari bilan hamkorlikda salmoqli ishlar tashkil etilganligi natijasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keskin kamayishiga va Jamiyat manfaatlarining himoya qilinishiga erishildi.

“Sert International” (Slovakiya) xalqaro tashkiloti malakali mutaxassislari tomonidan 2022 yilning avgust-sentyabr oylarida “Hududgazta’minot” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimini joriy etish jarayonlarini o‘rgangan holda, ISO 37001:2016 xalqaro standartiga muvofiq deb topdilar.

Bugungi kunda “Hududgazta’minot” AJ tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali joriy etish ko‘lami kontragentlar bilan bir qatorda tizim tashkilotlari jamoalari orasida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va oldini olish, nepotizm, Jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy xavf-

xatarlarni hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan nomzodlar bilan mehnat munosabatlariga kirishni minimallashtirish, bilimdon va halol xodimlarni tanlash kabi salmoqli natijalarni qamrab oladi.

Xulosa sifatida ta'kidlab o'tmoqchimanki, kelajak avlodga korrupsiyadan holi sohani qoldirishda gaz sohasining har bir xodimi korrupsiyaga qarshi kurashda o'z hissasini qo'shishi kerak. Shu sababdan, "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyatining ulkan jamoasini korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillariga sidqidildan amal qilishlarini so'rab qolaman.